

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIIY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlar.....	106
-----------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 92(560):930.85

MUSTAFO KAMOL OTATURK KUNDALIGIDA AMIR TEMUR SIYMOSI**MUSTAFA KEMAL ATATÜRK IN HIS DIARY THE IMAGE OF AMIR TEMUR****МУСТАФА КЕМАЛЬ АТАТЮРК В СВОЕМ ДНЕВНИКЕ ОБРАЗ АМИРА ТЕМУРА**

Mamajonov Xumoyun Xomidjon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mustafo Kamol Otaturkning kundaliklarida Amir Temur siymosining aks etishi, uning Otaturk tomonidan qanday baholanganligi va bu baholarning tarixiy hamda siyosiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Otaturkning Amir Temurga bo'lgan hurmati, uning yetakchilik fazilatlariga bergan bahosi yoritilgan. Maqolada shuningdek, Amir Temurning siyosiy strategiyalari va harbiy muvaffaqiyatlari Otaturk qarashlari bilan solishtirilgan holda tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot tarixiy shaxslarning zamonaviy davlat qurilishiga ta'sirini o'rganish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Abstarct

This article analyzes the reflection of Amir Temur's image in the diaries of Mustafa Kemal Atatürk, how Atatürk evaluated him, and the historical and political significance of these assessments. The study highlights Atatürk's respect for Amir Temur and his evaluation of Temur's leadership qualities. Additionally, the article examines Amir Temur's political strategies and military successes in comparison with Atatürk's perspectives. This research holds significant importance in understanding the influence of historical figures on modern state-building.

Аннотация

В данной статье анализируется отражение образа Амира Темура в дневниках Мустафы Кемала Ататюрка, его оценка со стороны Ататюрка, а также историческое и политическое значение этих оценок. В исследовании раскрывается уважение Ататюрка к Амиру Темуру и его мнение о лидерских качествах Темура. Также в статье рассматриваются политические стратегии и военные успехи Амира Темура в сравнении с взглядами Ататюрка. Данное исследование имеет важное значение с точки зрения изучения влияния исторических личностей на процесс современного государственного строительства.

Kalit so'zlar: Amir Temur, Otaturk, kundalik, Amir Qazag'on, turk tarixi, Amir Husayn, Barlos, Markaziy Osiyo, harbiy strategiya, davlat boshqaruvi, diplomatiya, Seyiston, Movarounnahr, Chingiziylar.

Ключевые слова: Эмир Тимур, Ататюрк, дневник, Эмир Казакан, турецкая история, Эмир Хусейн, Барлас, Центральная Азия, военная стратегия, государственное управление, дипломатия, Сейистан, Мавераннахр, Чингизиды.

Key words: Amir Temur, Atatürk, diary, Amir Qazaghan, Turkish history, Emir Husayn, Barlas, Central Asia, military strategy, state governance, diplomacy, Sistan, Mawarannahr, Chingizids.

KIRISH

Tarix minglab buyuk shaxslarning nomi bilan boyib kelgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari nafaqat o'z zamonasida, balki keyingi asrlarda ham insoniyat tafakkuriga chuqur ta'sir o'tkazgan. Ayniqsa, o'zining harbiy iste'dodi, davlat boshqaruvidagi donoligi va kelajak avlodlar uchun qoldirgan merosi bilan ajralib turadigan siymolar hamisha tarixiy tadqiqotchilar va davlat arboblarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu jihatdan olganda, buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo xalqlari, balki butun dunyo tarixida o'chmas iz qoldirgan shaxsiyat sifatida qadrlanadi. Uning yurishlari, harbiy strategiyasi, davlat boshqaruvidagi islohotlari va adolat tamoyillariga asoslangan siyosati bugungi kunda ham tadqiq etilmoqda.

XX asr boshlarida, ya'ni jahon siyosiy maydonida tub burilishlar yuz berayotgan davrda, Turkiya Respublikasi asoschisi Mustafo Kamol Otaturk ham tarixiy buyuk shaxslardan ilhom olganligi ma'lum. Ayniqsa, uning Amir Temurga bo'lgan hurmati va qiziqishi Otaturkning nutqlari, yozishmalari va kundaliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mustafo Kamol Otaturk Turkiyaning milliy mustaqilligini ta'minlash, xalqni zamonaviy taraqqiyot sari yetaklash yo'lida ko'plab tarixiy tajribalardan foydalangan. U Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda sifatida, balki xalqparvar, adolatparvar va ilg'or g'oyalarni ilgari surgan davlat rahbari sifatida qadrlagan.

Amir Temur va Otaturk – bir-biridan butunlay boshqa davrda yashagan bo'lishiga qaramay, ularning faoliyatida juda ko'p o'xshash jihatlar mavjud. Har ikkisi ham o'z davlatining siyosiy, iqtisodiy va harbiy qudratini oshirishga intilgan, davlat boshqaruvida mustahkam tartib-intizom o'rnatgan, shuningdek, xalqining milliy g'ururini oshirish va mustaqillikni ta'minlash yo'lida fidokorona xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlari B.Usmonov, Ahat Andijon, "Turk tarixidan matnlar" ("Türk tarihi yazıları") kitobi va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. Maqolani yozishda tarixiy tadqiqotlar olib borishning tarixiylik, tizimlilik, xolislik va determinizm kabi usullaridan foydalanildi. Xususan, ishda qiyosiy tarxiy, analiz, sintez, retrospektiv kabi umumfalsafiy metodlar qo'llanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mustafo Kamol Otaturk o'zining siyosiy va harbiy faoliyati bilan bir qatorda tarixiy shaxslar, xususan, qadimgi turkiy hukmdorlarning merosi va ularning tarixiy ahamiyatiga ham chuqur qiziqqan. U bu mavzuga bo'lgan qiziqishini o'zining shaxsiy kundaliklarida ifoda etgan bo'lib, u yerda turkiy xalqlar o'tmishi, ularning buyuk sarkardalari, davlat arboblari haqidagi fikr-mulohazalarini yozib qoldirgan. Garchi bu qoralamalar hayoti davomida matbuotda chop etilmagan va rasmiy adabiy yoki ilmiy asar sifatida nashr etilmagan bo'lsa-da, ularning ahamiyati beqiyosdir. Chunki bu yozuvlar Otaturkning milliy ong va tarixiy xotirani shakllantirishdagi shaxsiy qarashlarini namoyon etadi. 2008-yilda Turkiya Bosh shtabi huzuridagi Harbiy tarix va strategik tadqiqotlar boshqarmasi tomonidan Otaturkning ushbu kundalik yozuvlari tahrir qilinib "Turk tarixidan matnlar" ("Türk tarihi yazıları") nomi ostida nashr etildi. Ushbu to'plamda u turkiy xalqlar tarixiga oid muhim mulohazalarini bayon etgan bo'lib, ayniqsa, buyuk sarkarda Amir Temurga alohida o'rin ajratgan. Otaturkning qoralamalariga ko'ra, Amir Temur nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo miqyosida hukmronlik qilishni maqsad qilgan ulkan shaxs bo'lgan. Otaturk Amir Temurning hayoti va faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining yirik siyosiy arbobi, harbiy strateg va yuksak maqsadlarga erishgan lider sifatida tasvirlaydi. Unga ko'ra, Amir Temur o'z oldiga qo'ygan har qanday siyosiy, harbiy yoki madaniy vazifani qat'iyat bilan amalga oshirishga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, Otaturk o'z kundaliklarida Amir Temur hukmronlik qilgan davrda Osiyo bilan Yevropa o'rtasidagi geografik va siyosiy chegara taxminan Venetsiya hududi orqali o'tganini alohida qayd etadi. Temur Yevropa chegaralariga yaqinlashganida, Yevropaning ko'plab qirollari va hukmdorlari uni turklarning buyuk xoqoni sifatida tan olganlar, unga chuqur hurmat bajo keltirib, maxsus elchilar yuborganlar hamda maktublar orqali o'z ehtiromlarini izhor etganlar. Bu holat Otaturk nazarida Amir Temurning nafaqat harbiy qudratini, balki xalqaro miqyosdagi siyosiy nufuzini ham yaqqol ko'rsatadi.⁹

Otaturk tarixiy shaxslarni shunchaki qadrlash bilangina cheklanmay, ularning siyosiy qarashlari va strategiyalarini ham tahlil qilgan. Uning kundaliklari shuni ko'rsatadiki, u tarixiy voqealarni zamonaviy siyosiy tafakkur bilan baholagan. Uning tarixga bo'lgan bunday yondashuvi, Turkiyada milliy ong va tarixiy xotirani shakllantirishga qaratilgan yirik islohotlarning bir qismi edi. Otaturkning tarixiy merosga, xususan, Amir Temur shaxsiyatiga bo'lgan e'tibori yuqori darajada ekanligini va uning turkiy dunyo tarixiga katta qiziqish bilan yondashganini ko'rsatadi.

Otaturk o'zining kundalik yozuvlarida Barlos qabilasi haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. U o'sha davrda Barlos qabilasini yetarli darajada himoya qila oladigan, ularning manfaatlarini ilgari suradigan kuchli va qat'iyatli yetakchi yo'qligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Otaturkning qayd etishicha, Amir Temurning otasi ushbu qabilaning boshlig'i bo'lgan, biroq u diniy ulamolarning nasihatlariga haddan ortiq quloq solib, natijada tarkidunyo hayot tarzini tanlagan. Bu holat Barlos qabilasining siyosiy yetakchiligida bo'shliq yuzaga kelishiga olib kelgan. Otaturk bu voqealardan so'ng Barlos qabilasi boshlig'i lavozimiga Amir Hoji Barlosning kelganini ham o'z yozuvlarida alohida qayd etib o'tadi.¹⁰

Otaturkning yuqorida keltirilgan mulohazalari ilmiy va tarixiy haqiqatga to'liq mos kelmasligi mumkin, biroq bu fikrlar u yashagan davr siyosiy sharoitlari ta'sirida shakllangan bo'lishi ehtimoli mavjud. Chunki aynan shu davrda Otaturk Usmoniylar imperiyasining xalifalik boshqaruv tizimidan

⁹ Türk tarihi yazıları, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike GÜRLER, Ankara 2008, S. 54.

¹⁰ Türk tarihi yazıları, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike GÜRLER, Ankara 2008, S. 55.

TARIX

butunlay voz kechib, sekulyar, ya'ni dunyoviy davlat tuzish yo'lida qat'iy islohotlarni amalga oshirayotgan edi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, u Barlos qabilasi misolida diniy rahbariyatning siyosiy hayotdagi rolini cheklash va o'z boshqaruv islohotlarining to'g'riligini asoslash uchun tarixiy misol keltirishni maqsad qilgan. Aynan Otaturkning ushbu qarashlari ta'sirida o'sha davr maktab va litseylarida foydalanilgan "Turk tarixining asosiy yo'nalishlari (Kirish qismi)" nomli ilk darslikda ham Amir Temur "arab ta'siriga tushib qolib, turklik manfaatlariga zarar yetkazgan shaxs" sifatida salbiy tarzda tasvirlangan holatlarga duch kelish mumkin.¹¹ Bundan tashqari, Otaturk Amir Tarag'ayni Barlos qabilasi yetakchisi sifatida ko'rsatish orqali, Amir Temurning yoshlik yillarida yetakchilik qilishga imkon beruvchi ijtimoiy muhit aynan oilada shakllanganligiga urg'u berishga intilgan bo'lishi mumkin.

Otaturk o'z kundalik yozuvlarida Amir Temurning siyosiy maydonga kirib kelishidan oldin yoq Amir Qazag'onning e'tiboriga tushganini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, Amir Qazag'on boshqa shaxslar bilan taqqoslaganda, aynan Temurga ko'proq ishonch bildirgan va unga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, Mustafo Kamol Otaturk tomonidan Amir Temur shaxsiyatiga berilgan quyidagi tavsiflar ham alohida e'tiborga loyiqdir: "Amir Temurning asosiy diqqatni jalb etadigan xususiyati uning xavf-xatar qarshisida xotirjam va mulohazakor bo'la olishi edi. Buni katta ishlarni bajarishga qodir erkaklardagina ko'rish mumkin. Amir Temurning jismoniy quvvati ham juda yuqori edi, shu tariqa u uyqusizlikka, tunlar otda yurishga chiday olardi. Amir Temurda sardorlik fazilatlar bor edi va u buyruq berishni yaxshi ko'rardi. Uning o'ziga juda katta ishonchi bor edi."¹²

Otaturkning Amir Temurning xavf-xatar oldidagi xotirjam va mulohazakor tutumiga urg'u berishi, uning Temurning strategik fikrlash qobiliyati hamda yetakchilik salohiyatiga chuqur hurmat bilan qaraganini ko'rsatadi. Bu e'tirof, shubhasiz, Otaturkning o'z harbiy rahbarlik tajribasidan kelib chiqqan bo'lib, u ham og'ir va inqirozli vaziyatlarda aynan strategik fikrlash va ruhiy barqarorlikni eng muhim omillar deb hisoblagan. Amir Temurning tunu kun ot ustida bo'lishi va uyqusizlikka bardosh bera olishini alohida tilga olishi orqali Otaturk harbiy boshqaruvda jismoniy chidamlilikning o'ta muhim ekanligini, ayniqsa jangovar sharoitda bu fazilat rahbar uchun ajralmas xususiyat hisoblanishini ta'kidlagan. Uning nuqtai nazariga ko'ra, chidamlilik — bu nafaqat jismoniy quvvat, balki aqliy barqarorlik va ruhiy mustahkamlik bilan chambarchas bog'liq jihatdir. Otaturkning bu fazilatlarini alohida e'tirof etishi, muvaffaqiyatli rahbar bo'lish uchun insonda nafaqat kuchli tana, balki mustahkam iroda va sabr-toqat bo'lishi zarurligini anglatadi. U aynan shu jihatlarning Amir Temurda mujassam bo'lganini tan oladi.

Tarixdan ma'lumki, o'ziga bo'lgan ishonch va hokimiyatni himoya qila olish qobiliyati tartibni ta'minlash hamda harbiy yurishlar kabi keng ko'lamli faoliyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim omillardan biridir. Katta harbiy tajribaga ega bo'lgan va kuchli lider sifatida tanilgan Otaturk uchun bu sifatlar ayniqsa ahamiyatli bo'lgan. Shu sababli, u Amir Temur shaxsida yirik qo'shinlarga boshchilik qilish, imperiya darajasidagi davlatni idora etish uchun zarur bo'lgan ishonch, qat'iyat va rahbarlik salohiyatining mujassam ifodasini ko'rgan bo'lishi tabiiydir. Otaturk Temurning xavf-xatarlarga nisbatan xotirjam va vazmin bo'la olishini "bu fazilat faqat ulkan ishlarga qodir bo'lgan insonlarga xosdir" deya ta'riflaydi. Bu esa Sohibqiron shaxsida jismoniy kuch, strategik tafakkur va mustahkam ishonch uyg'unlashganini anglatadi va uni buyuk yutuqlarga erisha oladigan noyob rahbar sifatida ko'rsatadi. Sotsiologik va tarixiy nuqtai nazardan qaralganda, jamiyatni ilhomlantira oladigan va izdoshlarga yo'l ko'rsata biladigan rahbarlar ko'pincha xarizmatik hokimiyat egasi sifatida baholanadi. Otaturk aynan shu jihatlarni Amir Temurda ko'rgan bo'lib, u Amir Temurning boshqaruvni o'z qo'lida mustahkamlab tura olish qobiliyati hamda muhim daqiqalarda qat'iy va hal qiluvchi qarorlar qabul qila olishini yuqori baholaydi. Otaturkning bu yondashuvi Amir Temurdagi yetakchilik fazilatlarini muvaffaqiyat kaliti sifatida tan olganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlar Otaturk Amir Temurda aqliy barkamollik va jismoniy chidamlilikning o'ziga xos uyg'unligini, uni tarixda buyuklikka erishish uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam etgan shaxs sifatida ko'rganligidan dalolat beradi. Shuningdek, Otaturkning yuqorida Amir Temur

¹¹ Türk Tarihi Tetkik Cemiyeti. (1930). Türk tarihinin ana hatları-Kemalist yönetimin resmi tarih tezi. İstanbul: Devlet Matbaası. s. 541.

¹² Türk tarihi yazıları, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike GÜRLER, Ankara 2008, S. 57-58.

shaxsiyati haqida bildirgan fikrlari 1931-yilda Turkiya maktablarida o'qitilish uchun nashr etilgan "Tarix" darsliklariga ham kiritilgan.¹³

Otaturk o'z kundalik yozuvlarida Amir Temurni mohir diplomat va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi sifatida yuqori baholaydi. U Temurning harbiy kuchlar nisbatan kam bo'lgan bir paytda Tug'luq Temurga qarshi ochiq to'qnashuvga kirishish samarasiz bo'lishini anglab yetganini, shu sababli aynan muzokaralar yo'lini tanlaganini alohida ta'kidlaydi. Otaturkning fikricha, bu qaror nafaqat vaziyatni to'g'ri baholashning namunasi, balki Amir Temurning yurti yirik talofatlardan asrash yo'lida oqilona siyosiy pozitsiyani tanlaganini ko'rsatadi. Bu holat Otaturk tomonidan Temurning siyosiy zukkoligi va davlat manfaatlarini ilg'or tarzda himoya qila olgan yetuk rahbar sifatidagi fazilatlarining e'tirofi sifatida taqdim etiladi.¹⁴

Amir Temurning muzokaralar orqali mintaqani yirik halokatdan saqlab qolishi uning real sharoitni to'g'ri baholaganidan dalolat beradi. Siyosiy pragmatizm nuqtai nazaridan, har qanday harakatning natijasi va oqibatlarini oldindan hisobga olish rahbarlik fazilatlaridan biri hisoblanadi. Otaturk bu jihatga urg'u berib, Temurning bo'lajak harbiy yurishlari va islohotlarining diplomatik omillarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Amir Temurning oz sonli qo'shin bilan kuchli raqibga qarshi chiqmaslik haqidagi qarori uning siyosiy muvozanatni saqlashga intilganini tasdiqlaydi. Diplomatiya tarixiy jarayonlarda mohirona qo'llangan vosita bo'lib, bu orqali davlat rahbarlari o'z manfaatlarini urushsiz ham ta'minlay olishgan. Otaturkning ushbu mulohazalari ham Amir Temurning bu boradagi mahoratini qayd etishga qaratilgan. Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytish mumkin-ki, Otaturk Amir Temurni nafaqat buyuk sarkarda, balki mohir diplomat, strateg va davlat arbobi sifatida tasvirlashga harakat qilgan.

Otaturk o'z kundaliklarida Amir Temurni, Tug'luq Temur ilk bor Movarounnahrda yurish qilgan davrlardayoq, mintaqa siyosatiga ta'sir o'tkaza oladigan kuchli va nufuzli shaxs sifatida tasvirlashga intilgan. Uning fikricha, Tug'luq Temur harbiy harakatlarni boshlashdan avval Amir Temur bilan maslahatlashgan bo'lib, Temur unga orqaga qaytishni maslahat bergan. U bu tavsiyasini shunday izohlagan: agar Tug'luq Temur ortga qaytsa, faqat bitta dushmani bo'ladi, ammo yurishini davom ettirsa, dushmanlari ikki baravar ko'payadi. Otaturk bu voqea orqali Amir Temurning siyosiy masalalardagi zukkoligi va vaziyatni teran tahlil qila olgan yetakchi sifatidagi fazilatlarini yoritishga harakat qilgan.¹⁵

Otaturkning yuqoridagi fikrlari ham "Temur tuzuklarida" keltirilgan. Ammo "Temur tuzuklarida" bu voqea tafsilotlari boshqacharoq shaklda keltirilgan. Tug'luq Temurga qarshi Mo'g'ulistonda isyon ko'tarilganda Amir Temur Tug'luq Temurga qo'shin yuborsa ikki xatar, o'zi borsa bir xatar ekanligini aytib, unga qo'zg'alonni bostirishga o'zi borishini maslahat beradi.¹⁶ Bundan tashqari, 1923-yilda Mustafo Rahmi shaxsan Otaturk hamda Turkiya ta'lim vaziri Ziya Go'kalp ko'rsatmalariga asosan "Temur tuzuklarini" turk tiliga tarjima qilgan edi.¹⁷ Bizningcha, Otaturkning yuqoridagi voqelikni tasvirlashda xatolikka yo'l qo'yishiga sabab Mustafo Rahmining "Temur tuzuklari"ni asl manbadan emas, balki fransuz sharqshunosi Lui-Matie Langlening tarjimasidan foydalanganligi bo'lishi mumkin.

Shuningdek, Otaturk o'z kundaliklarida Amir Temurning kelib chiqishi haqida e'tiborga molik va qiziqarli mulohazalarni bildirganini ko'rish mumkin. Unga ko'ra, Amir Temur aslida Chingizylar avlodidan emas, balki Ko'ragonlar sulolasiga mansub bo'lgan. Otaturk tarixda Chingizylar bilan Ko'ragonlar o'rtasida maxsus bitim tuzilganini eslatadi. Ushbu shartnomaga ko'ra, Chingizylar hukmdorlarni tarbiyalash bilan shug'ullangan bo'lsa, Ko'ragonlar esa harbiy yetakchilar va qo'mondonlar yetishtirib berish vazifasini bajargan. Bu fikrlar Otaturk tomonidan Amir Qazag'onning og'zidan keltirilgan tarzda bayon etiladi.¹⁸

¹³ Türk Tarihi Tetkik Cemiyeti. (1931). Tarih II, orta zamanlar. İstanbul: Devlet Matbaası. s. 300.

¹⁴ Türk tarihi yazilari, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike Gürler, Ankara 2008, S. 67.

¹⁵ Türk tarihi yazilari, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike Gürler, Ankara 2008, S. 69.

¹⁶ Temur tuzuklari. / A. Temur. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 21 b.

¹⁷ Andican, A. A. (2019). Emir Timur: tarih, siyaset, miras. İstanbul: Selenge Yayınları. s. 746.

¹⁸ Türk tarihi yazilari, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike Gürler, Ankara 2008, S. 60-61.

TARIX

Otaturkning yuqoridagi fikrlari “Temur tuzuklari”da keltirilgan bo‘lib¹⁹, ularning shaxsiy kundaliklariga yozib qo‘yilgani uning bu asar bilan yaqindan tanish bo‘lganligini tasdiqlaydi. Bu holat Chingiziy hukmdorlar bilan mahalliy siyosiy kuchlar o‘rtasidagi munosabatlar aynan shunday yo‘sinda shakllanganini ko‘rsatadi. Chingizxon avlodlari, ya‘ni Chingizylar, garchi rasmiy ravishda oliy hukmdor sifatida tan olingan bo‘lsalar-da, amalda siyosiy hokimiyat ko‘pincha mahalliy urug‘-qabilalar va harbiy elita (masalan, barloslar) qo‘lida bo‘lgan. Shunday ekan, Otaturkning bu fikrlarini Chingiziy davrida turkiy xalqlarning davlat boshqaruvida faol rol o‘ynagani va mustaqil harbiy-siyosiy kuch sifatida mavjud bo‘lganini ko‘rsatishga qaratilgan urinish sifatida talqin qilish mumkin.

Otaturk o‘z asarida Amir Temurning jarohat olgan voqeasini tafsilotlari bilan bayon etar ekan, bu holat Seyiston hukmdorining isyoni yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat fonida sodir bo‘lganini ta’kidlaydi. Uning yozishicha, isyonni bostirish maqsadida Seyiston hukmdori Amir Temur va uning ittifoqchisi Amir Husayndan harbiy yordam so‘ragan. Amir Temur bu murojaatga ijobiy javob berib, yordam ko‘rsatishga bel bog‘lagan bo‘lsa-da, Amir Husayn bu vaziyatdan o‘z manfaatlarini yo‘lida foydalanishga urinadi. U Seyiston hududini egallash niyatida bo‘lgan, bu yerda o‘zining ishonchli kishilarini joylashtirishga kirishgan. Bunday holat esa siyosiy beqarorlikni kuchaytiradi va Seyiston aholisi orasida norozilik uyg‘otadi. Natijada, kechasi kutilmaganda amalga oshirilgan hujum vaqtida Amir Temur og‘ir shikastlanadi — uning qo‘li va oyog‘i jarohat oladi. Otaturk bu voqeani Amir Temurning harbiy faoliyatidagi muhim burilish nuqtalaridan biri sifatida ko‘rsatadi.²⁰

XULOSA

Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi alohida e‘tibor bilan yoritilgan bo‘lib, unda buyuk sarkardaning harbiy iqtidori, adolatparvar siyosati va davlat boshqaruvidagi donishmandligi alohida ta’kidlanadi. Otaturk Amir Temurni nafaqat mohir qo‘mondon, balki kuchli davlat arbobi sifatida e’tirof etadi. Uning fikricha, Temurning harbiy yurishlari va islohotlari turkiy xalqlar tarixida muhim o‘rin tutib, kelajak avlodlar uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ikkala yetakchining ham asosiy maqsadi mustahkam va adolatli davlat barpo etish bo‘lgan. Mustafo Kamol Otaturkning Amir Temur siymosiga bo‘lgan yuksak hurmati, u haqidagi mushohadalari va tarixiy bahosi uning kundaligida aniq ko‘rsatilgan. Bu esa Amir Temur merosining nafaqat o‘zbek xalqi, balki butun turkiy dunyo uchun ulkan ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Türk tarihi yazilari, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike GÜRLER, Ankara 2008, S. 117.
2. Türk Tarihi Tetkik Cemiyeti. (1930). Türk tarihinin ana hatları-Kemalist yönetimin resmi tarih tezi. İstanbul: Devlet Matbaası. s. 541.
3. Andican, A. A. (2019). Emir Timur: tarih, siyaset, miras. İstanbul: Selenge Yayınları. s. 746.
4. Temur tuzuklari. / A. Temur. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. — 21 b.

¹⁹ Temur tuzuklari. / A. Temur. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. — 27 b.

²⁰ Türk tarihi yazilari, Genelkurmay Askerî Tarih ve Stratejik Etüt Başkanlığı Yayınları, Hazırlayanlar Dr. Öğ. Alb. Ahmet TETİK- Arş. Uzm. Ayşe SEVEN- Arş. Uzm. Melike Gürler, Ankara 2008, S. 83-84.